

**"Kapitalbank" ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish
bo'yicha kelishuvga**

2-ILOVA

**Chet el valyutasida talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish, yuritish va yopish
TARTIBI**

I. QO'SHIMCHA ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Mazkur Tartibda quyidagi atamalar va ta'riflardan foydalilanildi:

Pul mablag'lari - chet el valyutasidagi pul mablag'lari;

Tartib – chet el valyutasida bank hisobvarag'ini ochish, yuritish va yopish tartibi. Ushbu Tartib Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan;

Hisobvaraq – chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraq bo'lib, Bank tomonidan Mijozga Ariza yoki Mijozning hisobvaraq ochish to'g'risidagi Arizasi asosida ochiladi va unda Mijozning birinchi talabi bilanoq beriladigan yoki o'tkazib beriladigan mablag'larning hisobi yuritiladi.

Sanksiyalar - davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning qaroriga binoan davlatlar, tashkilotlar yoki ayrim jismoni yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan iqtisodiy yoki boshqa turdag'i jamoaviy yoxud bir tomonlama majburlov choralar.

Sanksiyalar ro'yxati - BMT Xavfsizlik Kengashi, Yevropa Ittifoqi va AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC, Office of Foreign Assets Control) tomonidan sanksiyalar ostiga tushgan davlatlar, tashkilotlar yoki alohida jismoni yuridik shaxslardir. Shuningdek, bu ro'yxatga boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar ham kiritilishi mumkin bo'lib, ular Bankka nisbatan, uning faoliyatiga bevosita yoki bilvosita tahdid soluvchi sanksiyalarни joriy etish huquqiga ega.

1.2. Ushbu Tartibda qo'llaniladigan boshqa atamalar va ta'riflar Kelishuvdag'i bilan bir xil ma'noga ega.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Tartib Mijoz tomonidan qo'lda yoki ERI bilan imzolangan Arizaga asosan Tomonlar uchun majburiy bo'ladi (kuchga kiradi) va Mijozga Hisobvaraq ochish, unga kelib tushadigan Pul mablag'larini qabul qilish va kiritish, hisobvaraqdan pul mablag'larini o'tkazish va to'lovlar amalga oshirish, kassa xizmatlarini ko'rsatish, birjadan tashqari valyuta bozoridagi operatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibda belgilangan tartibda hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarini amalga oshirish (bajarish) bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Bank tariflari, Ommaviy oferta va Hisobvaraq ochish to'g'risidagi ariza birgalikda Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan milliy valyutada Bank hisobvarag'i shartnomasi (keyingi o'rnlarda «Shartnomalar» deb yuritiladi) hisoblanadi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bankning majburiyatları:

3.1.1. Mijozga kompleks hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish hamda uning topshirig'iga binoan amaldagi qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjalarda nazarda tutilgan chet el valyutasidagi barcha hisob-kitob va kassa operatsiyalarini amalga oshirish, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliga muvofiq Mijozning hisobvarag'i bo'yicha valyuta operatsiyalarini amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Mijozning, unga tegishli bo'lgan bir hisobvaraqdan boshqasiga va boshqa shaxslarning hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini tegishli to'lov hujjatlari asosida o'tkazish (to'lash);
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq mijozning hisobvarag'iga kelib tushayotgan mablag'larni hisobvaraqqa kirim qilish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidan nazarda tutilgan hollarda Mijozdan naqd chet el valyutasini qabul qilish va berish;
- Mijozning eksport-import va barter bitimlari monitoringini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ravishda olib borish;
- birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalarni ushbu Tartib shartlariga muvofiq amalga oshirish;
- Mijoz bilan alohida shartnomalar asosida to'g'ridan to'g'ri hisob-kitob va kassa xizmatlariga tegishli bo'lmanan boshqa (kreditlash, faktoring, lizing, svop, akkreditivlar va boshqa valyuta operatsiyalari kabi) xizmatlarni ko'rsatish;

3.1.2. Mijozga to'lovlarini qabul qilish va jo'natish bo'yicha soat 9:00 dan 16:00 gacha (bayram va dam olish kunlaridan tashqari) xizmat ko'rsatish. To'lovlar va kassa operatsiyalari bilan bog'liq bo'lmanan xizmatlar bankning amaliyot kuni doirasida amalga oshiriladi;

3.1.3. Mijozning topshirig'iga binoan hisob-kitob operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirish. Mijozning hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish uning topshirig'i asosida, to'lov hujjatlari Bankka kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirmasdan amalga oshiriladi. Mijozning topshirig'isiz uning hisobvarag'idan pul mablag'larini hisobdan chiqarishga faqat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi;

3.1.4. to'lov hujjatlarini qabul qilishda barcha zarur rekvizitlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish va rasmiylashtirilgan to'lov hujjatining ijrosini ta'minlash;

3.1.5. pul tushumlarini qabul qilishni O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari muassasalarida kassa ishi qoidalariga muvofiq ravishda amalga oshirish;

3.1.6. Mijozni hisob-kitob va kassa hujjatlari bilan ta'minlash: chet el valyutasida naqd pul qo'yish e'lonlari va boshqa bank blankalari, shuningdek Mijozning talabiga binoan uning ishonchli vakiliga hisobvaraqdan ko'chirmani tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda berish;

3.1.7. Mijozga hisob-kitob, bank texnologiyalari, hujjat aylanishi tartibi va valyutani tartibga solishga taalluqli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha maslahatlar berish;

3.1.8. bankka ishonib topshirilgan pul mablag'larining but saqlanishini ta'minlash;

3.1.9. belgilangan joyga kelib tushmagan pul mablag'larini Mijozning murojaatiga ko'ra qidirish;

3.1.10. O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasida chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020 yil 29 avgustdagи 18/5-sonli qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 31 avgustda 3281-sod bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari"ga muvofiq amalga oshirish.

3.2. Mijozning majburiyatlar:

3.2.1. Hisobvaraq ochish va yuritish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni Bankka taqdim etish;

3.2.2. Bankda belgilangan ish vaqtiga, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga rioya qilish, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hujjatlari/qarorlari talablarini bajarish;

3.2.3. Bank tomonidan ko'rsatiladigan hisob-kitob va kassa xizmatlari uchun to'lovlarini ushbu Tartibda belgilangan qoidalarga binoan amalga oshirish;

3.2.4. o‘z hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirma (yoki hisobvarag‘i holati to‘g‘risidagi ma’lumot) olingen kundan boshlab yoki hisobvarag‘iga boshqa shaxslarning mablag‘lari tushganidan so‘ng, undan birinchi marta pul yechish operatsiyasi amalga oshirilgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida o‘z hisobvarag‘iga begona mablag‘lar kelib tushganligi to‘g‘risida Bankka xabar berish;

3.2.5. chet el davlatlarining subyektlari bilan tuzilgan shartnomalarga binoan amalga oshirilgan eksport-import va boshqa operatsiyalar haqidagi hujjat va ma’lumotlarni, shuningdek, zarurat bo‘lganida, Bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun kerak bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni taqdim etish;

3.2.6. o‘z faoliyati va operatsiyalariga oid noto‘g‘ri ma’lumot hamda hujjatlarni taqdim etganligi uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olish.

3.2.7. Bankning talabi bo‘yicha, chet el davlatlarining subyektlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq amalga oshirilgan eksport-import va boshqa operatsiyalar haqidagi ma’lumotlarni, shuningdek, zarurat bo‘lganida, Bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun kerak bo‘lgan boshqa ma’lumotlar, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq ma’lumotlarni taqdim etish;

3.2.8. bank hisobvaraqlaridan quyidagi operatsiyalarni (shu jumladan, Bank tomonidan xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi operatsiyalarni) o‘tkazish uchun foydalanmaslik:

- Bank va/yoki Mijozga zarar yetkazishi, boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lsa, shu jumladan vakolatli davlat va/yoki moliyaviy tashkilotlar tomonidan Mijozga (uning pul mablag‘lariga) va/yoki Bankka nisbatan sanksiyalar qo‘llanilishi, xususan, Mijozga (uning pul mablag‘lariga) nisbatan amaldagi qonunchilik va/yoki chet el davlatlarining qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlari, sud qarorlari va boshqa vakolatli organlarning qarorlari bilan o‘rnatilgan cheklolvar bilan bog‘liq bo‘lsa;

- agar pul mablag‘larini oluvchi yoki naf ko‘rvuchi shaxs yoxud tomon sanksiya ro‘yxatlarida bo‘lsa;
- amaldagi qonunchilik va "Kapitalbank" ATBning ichki hujjatlari talablariga zid kelsa;

3.2.9. tashqi savdo kontrakti bo‘yicha chet ellik hamkor yoki chet ellik hamkorning benefitsiar mulkiy egasi sanksiyalar ro‘yxatlariga aloqador emasligi, shuningdek, tranzaksiyalar va yetkazib berish yo‘llari sanksiyalar obyekti bo‘lgan davlatlar va geografik hududlar bilan bog‘liq emasligiga (shu jumladan, moliyaviy) javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;

3.2.10. AQSH, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyaning taqiqlovchi sanksiyalari ro‘yxatlariga, shuningdek AQSH eksport nazorati qoidalariga rioya etish maqsadida quyidagi harakatlarni amalga oshirish:

- shaxsan o‘zi, kontragentlari, benefitsiarlari va tijoriy operatsiyalariga nisbatan sanksiyaviy xavf-xatarlarini muntazam ravishda (har chorakda kamida bir marta) kuzatib borish;
- aniqlangan sanksiyaviy xavf-xatarlar yoki ularning yuzaga kelish ehtimoli haqida darhol (bir ish kunidan kechiktirmay) Bankni xabardor qilish;
- Bank talabiga binoan sanksiya monitoringi o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish;
- sanksiya shartlarini buzish natijasida yuzaga kelgan barcha xarajat va zararlarni, shu jumladan yuridik yordam va maslahatlar uchun ketgan xarajatlarni ham, Bankka to‘liq hajmda qoplash;
- sanksiyaviy xavf-xatarlar haqidagi ma’lumotlarni almashishda qat‘iy maxfiylik tartibiga rivoja qilish;
- Bank tomonidan sanksiya qoidalari o‘zgarishi yoki yangi sanksiyaviy xavf-xatarlarning paydo bo‘lishi munosabati bilan belgilanishi mumkin bo‘lgan har qanday qo‘srimcha talablar va cheklolvara rivoja etish.

3.2.10.1. Mijoz shu orqali quydagilarni so‘zsiz tasdiqlaydi va kafolat beradi:

a) tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari) bo‘yicha barcha kontragentlar, shu jumladan ularning ishtirokchilarini, aksiyadorlari, yakuniy benefitsiarlari va nazorat qiluvchi shaxslari sanksiyalar ro‘yxatlariga kiritilmagan va kiritilmaydi. Bu ro‘yxatlar quydagilarni o‘z ichiga oladi (ammo ular bilan cheklanmaydi):

- SDN List (AQSH);

- AQSHning taqiqlovchi sanksiya ro‘yxatlari;
- Yevropa Ittifoqining sanksiya ro‘yxatlari;
- Buyuk Britaniyaning sanksiya ro‘yxatlari;
- boshqa qo‘llaniladigan sanksiya va cheklov ro‘yxatlari.

b) tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari) bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar:

- AQSH, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyaning taqiqlovchi sanksiyalar ro‘yxatlariga kiritilgan biron-bir tashkilotga qayta sotilmaydi, yetkazib berilmaydi, eksport qilinmaydi va/yoki tashilmaydi, shuningdek AQSH va Yevropa Ittifoqining eksport nazorati tomonidan taqiqlangan maqsadlarda foydalanilmaydi;

- AQSH eksport nazorati qoidalarini buzadigan tarzda qayta sotilmaydi yoki yetkazib berilmaydi, Rossiya harbiy-sanoat majmuasi va mudofaa sanoati bilan aloqador yoki boshqacha tarzda bog‘liq bo‘lgan kompaniyalarga qayta sotilmaydi, yetkazib berilmaydi, eksport qilinmaydi va/yoki tashilmaydi, shuningdek Rossiyaning harbiy-sanoat bazasini mustahkamlashga boshqacha yo‘l bilan ko‘maklashmaydi;

c) Mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlar va operatsiyalar (shu jumladan, ekspeditor, tashuvchi va fraxtlovchi tomonidan tranzit va tashish bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishda transport ekspeditsiyasi, tashish va charter (fraxtlash) shartnomalari bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar) sanksiya ostidagi mamlakatlar va ro‘yxatlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita aloqador emasligiga (shu jumladan, moliyaviy jihatdan ham) javobgar bo‘ladi.

Mijoz (xaridor sifatida) AQSH, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyaning eksport nazorati qoidalari tomonidan qo‘yiladigan, yetkazib beriladigan tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar yoki dasturiy ta’mindan foydalanish va o‘tkazish, shuningdek, Amerikada ishlab chiqarilgan har qanday buyum yoki Amerikada ishlab chiqarilgan tarkibiy qismga ega bo‘lgan tovarlar yoki AQSH yoxud Yevropa Ittifoqining intellektual mulk huquqlariga taalluqli cheklovlarini anglab yetadi. Ular AQSH, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyaning eksport nazorati qoidalarini buzgan holda Rossiyaga yetkazib berilgan bo‘lishi mumkin. Mijoz yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga oid biron-bir o‘zgarish bo‘lganini bilsa, u bunday o‘zgarishlar haqida Bankni o‘z vaqtida xabardor qilish majburiyatini oladi.

3.3. Tomonlar maxfiylikka rioya qilishlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidan nazarda tutilgan hollardan tashqari, boshqa tomonning yozma rozilgisiz ma‘lumotlarni oshkor etmasliklari shart.

3.4. Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Kelishuvda ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

IV. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hujjat va qarorlari, "Kapitalbank" ATBning ichki hujjatlari bilan belgilangan hisob-kitoblar tartibining buzilishi, shuningdek, Mijoz tomonidan to‘lov hujjatlarini rasmiylashtirish va o‘z vaqtida taqdim etish tartibining buzilishi aniqlangan hollarda, Bank operatsiyani to‘xtatib qo‘yish choralarini ko‘radi, ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lgan to‘lovnii amalga oshirishni rad etadi va uni to‘xtatib qo‘yadi.

4.1.2. Mijoz mablag‘larining butligi va ulardan erkin foydalanishini kafolatlagan holda, Mijozning bo‘sh pul mablag‘laridan resurslar sifatida foydalanish;

4.1.3. soliq organi taqdimnomasini bajarish maqsadida, Mijozning rozilgisiz, O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasida chet el valyutasini sotish kunidagi kurs bo‘yicha sotishni amalga oshirish, budget oldidagi qarzni to‘lash uchun zarur bo‘lgan miqdorda, hamda so‘mdagi ekvivalentini O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan "Chet el valyutasidagi hisobvaraqlarda mablag‘larga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan budget oldidagi majburiyatlarni to‘lash tartibi"ga muvofiq Mijozning milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga o‘tkazish;

4.1.4. xorijiy davlat rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs o‘zining xorijiy davlat rezidenti ekanligini va/yoki xorijiy davlatga soliqlar to‘lash majburiyatini tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi ma’lumotlar va hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortgan taqdirda, shuningdek, Bank tariflarida nazarda tutilganidek, chet el valyutasidagi hisobvaraqlardagi, chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha hisobvaraqlardagi (muddatli va jamg‘arma omonatlaridan tashqari) pul mablag‘lari qoldig‘ini kamaytirish holatlarida, KBXSH va Shartnomalarni tuzishdan voz kechish yoxud KBXSH va Shartnomani bajarishdan bir tomonlama tartibda (to‘liq yoki qisman) voz kechish.

4.1.5. bir tomonlama tartibda:

4.1.5.1. Mijoz sanksiya ro‘yxatiga tushgan taqdirda, KBXSH va/yoki Shartnomalarni tuzishdan voz kechish yoxud KBXSH va/yoki Shartnomani (to‘liq yoki qisman) bajarishdan bosh tortish (bekor qilish) yoki Mijozning tegishli Operatsiyalarini to‘xtatib qo‘yish (Shaxslar ro‘yxatida bo‘lgan Mijozning hisobvarag‘iga kelib tushgan pul mablag‘larini kirim qilish bo‘yicha operatsiyalar bundan mustasno) va/yoki Mijozning hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini bloklash (muzlatish);

4.1.5.2. quyidagi hollarda Mijozning hisobvarag‘iga kelib tushgan pul mablag‘larini qaytarish huquqi bilan KBXSH va/yoki Shartnomalarni tuzishdan bosh tortish yoki KBXSH va/yoki Shartnomani (to‘liq yoki qisman) bajarishdan voz kechish (bekor qilish), Mijozning tegishli operatsiyalarini to‘xtatib qo‘yish va/yoki Mijozning hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini bloklash (muzlatish):

- agar Mijoz sanksiyalar ro‘yxatida bo‘lsa va/yoki Mijozga nisbatan AQSH Moliya vazirligi bo‘linmasining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi va boshqa davlat hamda nodavlat tashkilotlarining "50% qoida"si qo‘llanilsa;

- so‘rovnomada aks ettirilgan Mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlar Mijozning amalda amalga oshirayotgan operatsiyalariga mos kelmasa;

- Mijoz va/yoki uning (kontragentlar (aksiyadorlar, ta’sischilar, benefitsiarlar), uning banklari va to‘lov zanjirida ishtirok etuvchi banklar ishtirokidagi) operatsiyalari xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, savdo va boshqa chekllovchi xususiyatga ega choralar (sanksiyalar, shu jumladan, ikkilamchi) ta’siri doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo‘lganda;

4.1.5.3. quyidagi hollarda pul mablag‘larini Mijozga pul mablag‘larini jo‘natuvchiga qaytarish huquqi bilan KBXSH va/yoki Shartnomalarni tuzishdan bosh tortish yoki KBXSH va/yoki Shartnomani (to‘liq yoki qisman) bajarishdan voz kechish (bekor qilish) yoxud Mijozning tegishli operatsiyalarini to‘xtatib qo‘yish va/yoki Mijozning hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini bloklash (muzlatish):

- agar Mijozga pul mablag‘larini jo‘natuvchi sanksiyalar ro‘yxatiga tushib qolsa va/yoki unga nisbatan AQSH Moliya vazirligi bo‘linmasining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi va boshqa davlat hamda nodavlat tashkilotlarining "50% qoida"si qo‘llanilsa;

- Mijozga pul mablag‘larini jo‘natuvchining (kontragentlar (aksiyadorlar, ta’sischilar, benefitsiarlar), uning banklari va to‘lov zanjirida ishtirok etuvchi banklar ishtirokidagi) operatsiyalari xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, savdo va boshqa chekllovchi xususiyatga ega choralar (sanksiyalar, shu jumladan, ikkilamchi) ta’sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo‘lganda;

4.1.6. Bank tuzilayotgan tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari) bo‘yicha quyidagi huquqlarga ega:

- Mijozning faoliyati va muayyan bitim yoki operatsiyani tekshirish, shu jumladan Mijozga so‘rov yuborish (bajarish muddati 2 ish kuni) orqali iqtisodiy sanksiyalar to‘g‘risidagi qonunchilik (BMT Xavfsizlik Kengashi, AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC) yoki AQSH, Kanada yoki Buyuk Britaniya hukumatining boshqa organi tomonidan nazorat qilinadigan) talablarining Bank tomonidan bajarilishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumot va hujjatlarni olish;

- operatsiyani o‘tkazish/bajarishni rad etish va zudlik bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga xabar berish;
- kiruvchi to‘lojni qaytarish yoki chiquvchi to‘loving amalga oshirilishini to‘xtatib qo‘yish;

- maxfiylik talablariga to‘liq riosa qilgan holda, mijozni operatsiyani o‘tkazish/bajarish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sanksiya xavflari haqida ogohlantirish;
- operatsiyani o‘tkazish shartlari, "Kapitalbank" ATBning sanksiyalar bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish siyosati qoidalari va Bankning «risk-appetiti»ga muvofiqligini tekshirish davomida operatsiyani o‘tkazishni/bajarishni to‘xtatib turish, bunda tekshiruv o‘tkazish muddatini Bank mustaqil ravishda belgilaydi;
- korrespondent banklariga so‘rov yuborish, to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki 50% qoidasi bo‘yicha bloklash sanksiyalarini ro‘yxatiga kiritilgan to‘lovlarni Bankga o‘tkazmaslik va jo‘natuvchi-bankka qaytarish;
- taqiqlovchi sanksiyalar ro‘yxatiga kiritilgan tomonga nisbatan tegishli choralarni ko‘rish, jumladan, (lekin bular bilan cheklanmagan holda): tashqi savdo kontrakti (shartnomasi) bo‘yicha xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish, Mijozning hisob raqamini bloklash va Mijoz bilan ishbilarmonlik aloqalarini tugatish;
- bunday holatlarning qayta yuz berishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun boshqa zarur choralarni amalga oshirish.

4.1.6.1. Bank quyidagi qo‘srimcha huquqlarga ega:

- yuqori xavfli operatsiyalarni chuqurlashtirilgan tekshiruvdan o‘tkazish;
- sanksiyaviy xavf-xatarlarini baholash bo‘yicha tashqi ekspertlarning xulosalarini so‘rash;
- xavfli operatsiyalar bo‘yicha hujjat aylanishiga qo‘srimcha talablar o‘rnatish;
- chet ellik kontragentlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan alohida nazorat tartibini joriy etish.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan choralar to‘liq emas va Bank sanksiyaviy xavf-xatarlarni samarali boshqarish maqsadida o‘z ixtiyoriga ko‘ra boshqa choralarni qo‘llash huquqiga ham ega.

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. Agar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida, Kelishuv va mazkur Tartibda boshqa hollar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, o‘z hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan pul mablag‘larini mustaqil tasarruf etish;

4.2.2. chet el valyutasida hisob-kitob kassa xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha Bankka topshiriq berish;

4.2.3. naqd chet el valyutasini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda olish;

4.2.4. Bankdan hisob-kitob, bank texnologiyalari, hujjatlar aylanishi tartibi va valyutani tartibga solishga taalluqli bo‘lgan boshqa masalalar bo‘yicha ma’lumotlar olish;

4.3. Bank Mijozning pul mablag‘laridan o‘z ixtiyoriga ko‘ra (qonunchilik, Kelishuv va mazkur Tartibda ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno) foydalanish va tasarruf etish bo‘yicha huquqlarini cheklashga haqli emas.

4.4. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

- korrespondent-banklarning operatsiyalarni amalga oshirishdan bosh tortishi natijasida yuzaga kelgan Mijozning zararlari;

- Mijozning xorijiy banklarning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag‘lari blokshanishi;
- qo‘srimcha tekshirishlar bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirishdagi kechikishlar;
- sanksiyaviy xavf-xatarlarning bilvosita alomatlari aniqlanganda operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish.

4.5. Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

V. KOMISSIYA HAQI VA UNI TO‘LASH

TARTIBI

5.1. Mijozning hisobvarag‘ida vositachilik haqini qoplash uchun pul mablag‘lari mavjud bo‘lmaganida yoki ular yetarli bo‘lmaganida, qarzning qoplanmagan qismi belgilangan tartibda bajariladigan to‘lov talabnomasini taqdim etish orqali Mijozning 2-sonli Kartotekaga joylashtiriladi. Mazkur to‘lov talabnomasi Mijoz tomonidan qo‘srimcha tasdiqlanishini talab qilmasdan akseptlangan hisoblanadi.

5.2. Hisobvaraqdagi pul mablag‘laridan foydalanganligi uchun Bank Mijozga hech qanday foiz to‘lamaydi.

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

6.1. Tomonlar Shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.1.1. Tomonlar quydagilarni tasdiqlaydilar va kelishib oladilar: agar Tomonlardan biri yoki naf oluvchi shaxslar BMT Xavfsizlik Kengashi, Yevropa Ittifoqi, AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarini nazorat qilish boshqarmasi (OFAC) yoxud AQSH, Yevropa Ittifoqi yoki Buyuk Britaniya hukumatining boshqa organi tomonidan tuzilgan sanksiyalar ro'yxatiga kiritilsa, shuningdek boshqa sanksiyaviy xavf-xatarlar yuzaga kelsa, Tomonlardan har biri Shartnomalar va/yoki Kelishuvni zudlik bilan bir tomonlama tartibda bekor qilish yoki to'xtatib qo'yish huquqiga ega (boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilgan holda).

Ushbu band bo'yicha Shartnomalar va/yoki Kelishuvni bir tomonlama bekor qilish va to'xtatib qo'yish Tomonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, Shartnomalar va/yoki Kelishuvni buzish deb hisoblanmaydi hamda Tomonlarga nisbatan mulkiy sanksiya va boshqa salbiy oqibatlarni qo'llash uchun asos bo'la olmaydi.

6.1.2. Tomonlar quydagilarni tan oladilar va kelishib oladilar:

- sanksiya bo'yicha mazkur qo'shimcha shart Shartnomalar va/yoki Kelishuvning muhim qismi hisoblanib, uning buzilishi Shartnomalar va/yoki Kelishuvni bekor qilish uchun asos bo'ladi hamda Shartnomalar va/yoki Kelishuvning butun amal qilish muddati davomida kuchida qoladi.

- sanksiya bo'yicha qo'shimcha shartning barcha bandlari bir-biridan mustaqil bo'lib, bitta bandning haqiqiy sanalmasligi boshqa bandlarining haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'lmaydi.

- sanksiya bo'yicha qo'shimcha shart va Shartnomalar va/yoki Kelishuvning boshqa shartlari o'rtaida ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda, sanksiya bo'yicha qo'shimcha shartning bandlari ustunlik kuchiga ega bo'ladi.

6.2. Shartnomalar Mijozning arizasi asosida, Mijoz shartnomalarini bajarmagan taqdirda Bankning talabiga ko'ra chiqarilgan sud qarori bilan, shuningdek amaldagi qonunchilik va Kelishuvda belgilangan boshqa hollarda bekor qilinguniga yoki to'xtatilguniga qadar amal qiladi.

6.2.1. Shartnomalar Mijoz tomonidan unga ko'rsatilgan bank xizmatlari bilan bog'liq barcha to'lovlar amalga oshirilganidan so'ng, istalgan vaqtida belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

6.3. Shartnomalar bekor qilinganidan keyin Bank hisobvaraqlari yopadi, Mijozning arizasiga muvofiq 7(yetti) ish kunidan kechiktirmasdan unga hisobvarag'idagi pul mablag'larining qoldig'ini beradi yoki uning topshirig'i bo'yicha pul mablag'larining qoldig'ini boshqa hisobvaraqlar o'tkazadi. Agar Mijoz shartnomalar bekor qilingan kundan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida pul mablag'larini boshqa hisobvaraqlar o'tkazish haqida Bankka yozma ko'rsatma bermasa, unda Bank Mijozning hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'ini 29842- hisobvaraqlar o'tkazadi.

6.4. Shartnomalar bekor qilingan yoki to'xtatilgan hollarda, Bank tariflariga muvofiq hisoblangan vositachilik haqi Mijozga qaytarilmaydi.

6.5. Ushbu shartnomalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtaida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkonii bo'lmasa, ular Kelishuvda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

6.6. Bank va Mijoz o'rtaisdagi ushbu Tartibda ko'zda tutilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Kelishuv asosida tartibga solinadi.